# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-oktabr)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan Qoraqalpog‘iston Respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 429,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 163,2 mln. AQSh dollariga yoki 27,5 % ga kamaydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**




*Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSAda eksport hajmi 285,4 mln. AQSh dollariga (21,6 % ga kamaydi) va import hajmi 144,2 mln. AQSh dollariga (37,0 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida 141,2 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 123,3 | 92,2 | 31,1 | 28,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 87,6 | 54,7 | 32,9 | 20,4 |
| Turkiya | 53,8 | 51,5 | 2,3 | 12,5 |
| Qozog‘iston | 43,5 | 29,6 | 13,9 | 10,1 |
| Koreya Respublikasi | 29,4 | 6,2 | 23,2 | 6,8 |
| Latviya | 22,0 | 17,7 | 4,3 | 5,1 |
| Vyetnam | 7,7 | 0,0 | 7,7 | 1,8 |
| Ukraina | 7,5 | 6,7 | 0,8 | 1,7 |
| Tojikiston | 5,3 | 5,3 | - | 1,2 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 3,9 | 2,1 | 1,8 | 0,9 |

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, jahonning 61 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (28,7 %), Rossiya Federatsiyasida (20,4 %), Turkiyada (12,5 %), Qozog‘istonda (10,1 %), Koreya Respublikasida (6,8 %) va Latviyada (5,1 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi, Turkmaniston va Afg‘oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya, Koreya Respublikasi va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (61,1 mln. AQSh dollari), Turkiya (49,2 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (21,8 mln. AQSh dollari), Qozog‘iston (15,7 mln. AQSh dollari), Latviya (13,4 mln. AQSh dollari), Ukraina (5,9 mln. AQSh dollari), Tojikiston (5,3 mln. AQSh dollari), Bangladesh (3,0 mln. AQSh dollari), Afg‘oniston (3,0 mln. AQSh dollari), Iroq (2,7 mln. AQSh dollari), Pokiston (2,2 mln. AQSh dollari) va Qirg‘iz Respublikasi (0,3 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 8 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **134,9** | **147,9** | **123,3** |
| Eksport | 95,6 | 88,6 | 92,2 |
| Import | 39,3 | 59,3 | 31,1 |
| Saldo | 56,3 | 29,3 | 61,1 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **158,2** | **150,7** | **87,6** |
| Eksport | 110,9 | 120,3 | 54,7 |
| Import | 47,3 | 30,4 | 32,9 |
| Saldo | 63,6 | 89,9 | 21,8 |
| **Turkiya** | **95,6** | **70,4** | **53,8** |
| Eksport | 82,5 | 52,7 | 51,5 |
| Import | 13,1 | 17,7 | 2,3 |
| Saldo | 69,4 | 35,0 | 49,2 |
| **Qozog'iston** | **56,5** | **63,4** | **43,5** |
| Eksport | 46,2 | 51,1 | 29,6 |
| Import | 10,3 | 12,3 | 13,9 |
| Saldo | 35,9 | 38,8 | 15,7 |
| **Koreya Respublikasi** | **39,1** | **56,1** | **29,4** |
| Eksport | 7,9 | 17,5 | 6,2 |
| Import | 31,2 | 38,6 | 23,2 |
| Saldo | -23,3 | -21,1 | -17,0 |
| **Latviya** | **24,1** | **20,6** | **22,0** |
| Eksport | 20,6 | 15,3 | 17,7 |
| Import | 3,5 | 5,3 | 4,3 |
| Saldo | 17,1 | 10,0 | 13,4 |
| **Vyetnam** | **6,2** | **12,4** | **7,7** |
| Eksport | 1,0 | - | - |
| Import | 5,2 | 12,4 | 7,7 |
| Saldo | -4,2 | -12,4 | -7,7 |

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Ukraina** | **16,4** | **5,3** | **7,5** |
| Eksport | 3,3 | 2,1 | 6,7 |
| Import | 13,1 | 3,2 | 0,8 |
| Saldo | -9,8 | -1,1 | 5,9 |
| **Tojikiston** | **1,5** | **2,5** | **5,3** |
| Eksport | 1,3 | 2,5 | 5,3 |
| Import | 0,2 | - | - |
| Saldo | 1,1 | 2,5 | 5,3 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **3,6** | **4,1** | **3,9** |
| Eksport | 3,5 | 2,7 | 2,1 |
| Import | 0,1 | 1,4 | 1,8 |
| Saldo | 3,4 | 1,3 | 0,3 |
| **Turkmaniston** | **1,8** | **3,9** | **3,1** |
| Eksport | 0,2 | 0,5 | 0,6 |
| Import | 1,6 | 3,4 | 2,5 |
| Saldo | -1,4 | -2,9 | -1,9 |
| **Bangladesh** | **0,6** | **-** | **3,0** |
| Eksport | 0,6 | - | 3,0 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,6 | - | 3,0 |
| **Afg'oniston** | **1,1** | **0,6** | **3,0** |
| Eksport | 1,1 | 0,6 | 3,0 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 1,1 | 0,6 | 3,0 |
| **Iroq** | **2,7** | **2,0** | **2,7** |
| Eksport | 2,7 | 2,0 | 2,7 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 2,7 | 2,0 | 2,7 |

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Eron** | **2,7** | **5,1** | **2,4** |
| Eksport | 0,3 | 0,2 | 0,0 |
| Import | 2,4 | 4,9 | 2,4 |
| Saldo | -2,1 | -4,7 | -2,4 |
| **Chexiya Respublikasi** | **1,1** | **1,0** | **2,3** |
| Eksport | 0,1 | - | - |
| Import | 1,0 | 1,0 | 2,3 |
| Saldo | -0,9 | -1,0 | -2,3 |
| **Pokiston** | **0,7** | **-** | **2,2** |
| Eksport | 0,7 | - | 2,2 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,7 | - | 2,2 |
| **Ruminiya** | **2,1** | **1,9** | **2,1** |
| Eksport | - | 0,0 | - |
| Import | 2,1 | 1,9 | 2,1 |
| Saldo | -2,1 | -1,9 | -2,1 |
| **Polsha** | **0,5** | **2,3** | **1,9** |
| Eksport | 0,1 | 0,2 | 0,2 |
| Import | 0,4 | 2,1 | 1,7 |
| Saldo | -0,3 | -1,9 | -1,5 |
| **Avstriya** | **1,6** | **0,7** | **1,8** |
| Eksport | 0,0 | 0,1 | - |
| Import | 1,6 | 0,6 | 1,8 |
| Saldo | -1,6 | -0,5 | -1,8 |

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 152,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI - NING TASHQI SAVDO AYLAN- MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV- LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**







Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2020- yil yanvar-oktabr oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (23,4 % ga) va jami TSAdagi ulushi 64,5 % ni tashkil etdi.

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 190 tani tashkil etib, ular tomonidan 275,6 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (68,5 %), nooziq-ovqat homashyo, yoqilg'idan tashqari (12,5 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (10,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **285 367,5** | **99 418,2** | **185 949,3** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 15 696,8 | 7 724,7 | 7 972,1 | 5,5 | 7,8 | 4,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 16,3 | 16,3 | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg'idan tashqari | 35 843,7 | 2 213,3 | 33 630,4 | 12,5 | 2,2 | 18,1 |
| Mineral yoqilg'I, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 1 263,5 | 249,7 | 1 013,8 | 0,4 | 0,3 | 0,5 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1 336,0 | 499,7 | 836,3 | 0,5 | 0,5 | 0,4 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 195 398,9 | 81 261,0 | 114 137,9 | 68,5 | 81,7 | 61,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari | 31 140,4 | 6 257,0 | 24 883,4 | 10,9 | 6,3 | 13,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 153,2 | 3,0 | 150,2 | 0,1 | - | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 1 715,4 | 86,1 | 1 629,3 | 0,6 | 0,1 | 0,9 |
| Xizmatlar | 2 803,4 | 1 107,4 | 1 696,0 | 1,0 | 1,1 | 0,9 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlariga to‘g‘ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| XSST tarkibi | 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **78,4** | **55,3** | **101,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 109,8 | 86,3 | 149,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 22,4 | 22,4 | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg'idan tashqari | 112,1 | 2,8 b. | 107,8 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 48,8 | 27,9 | 59,9 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 2,5 b. | 95,3 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 70,1 | 50,3 | 97,6 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 103,9 | 115,7 | 101,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 4,2 | 19,5 | 4,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 73,1 b. | 5,7 b. | 191,7 b. |
| Xizmatlar | 130,2 | 77,1 | 2,4 b. |

2020- yil yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, ichimliklar va tamaki, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar hamda mashinalar va transport asbob-uskunalaridan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ulushi, % da)**

| XSST tarkibi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3,1 | 3,9 | 5,5 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg'idan tashqari | 4,2 | 8,8 | 12,5 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 1,9 | 0,7 | 0,4 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | 0,1 | 0,5 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 86,8 | 76,7 | 68,5 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 3,5 | 8,2 | 10,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | 1,0 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | - | - | 0,6 |
| Xizmatlar | 0,5 | 0,6 | 1,0 |

**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2019-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 13 796,9 | 97,7 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 1 856,4 | 11,2 b. |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 19,7 | - |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 23,6 | - |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 16,3 | 22,4 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 25 861,7 | 145,1 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 6 899,1 | 140,2 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 67,7 | 175,4 |
| O’g’itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko’mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 3 015,2 | 32,8 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 1 263,5 | 50,4 |
| **Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 1 336,0 | 2,5 b. |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar | 2,5 | - |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 195 300,5 | 70,1 |
| Noorganik kimyo moddalari | 12,9 | - |

**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| | | |
|---|---|---|
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 82,9 | 72,6 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 27 025,6 | 130,3 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar | 6,7 | 5,9 b. |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 3 885,0 | 62,8 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 219,4 | 7,3 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna | 3,8 | 125,7 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 2,0 | 0,2 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 6,5 | 46,4 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | 128,0 | 6,5 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 13,6 | 5,0 b. |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 3,0 | 0,4 |
| **Turli hil tayyor buyumlar** | | |
| Mahsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 1 677,1 | 224,9 b. |
| Har xil tayyor buyumlar | 38,3 | 2,5 b. |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 560,2 | 67,7 |
| Transport xizmatlari | 890,2 | 159,1 |
| Safarlar (turizm) | 257,0 | 34,7 |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 10,9 | 44,0 |
| Qurilish xizmatlari | 1 085,1 | - |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yil yanvar-oktabrdagi 49,4 % dan 2020- yil yanvar-oktabrida 34,8 % ni tashkil qildi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 65,2 % ni tashkil etdi.







2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (32,3 %), Rossiya Federatsiyasi (19,2 %), Turkiya (18,1 %), Qozog'iston (10,4 %), Latviya (6,2 %), Ukraina (2,3 %) va Koreya Respublikasi (2,2 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,7 foizni tashkil etmoqda.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (yanvar-oktabr, ulushi, % da)

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining bir pog‘onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2019- yilning mos davriga nisbatan 52 davlatdan 50 davlatga kamaydi.




QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh. dollari)

| Asosiy hamkor davlatlar | Eksport | O‘zgarish sur’atlari, % da |
|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 92,3 | 104,1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 54,7 | 45,4 |
| Turkiya | 51,5 | 97,8 |
| Qozog‘iston | 29,6 | 58,0 |
| Latviya | 17,8 | 116,1 |
| Ukraina | 6,7 | 3,2 b. |
| Koreya Respublikasi | 6,2 | 35,4 |

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (yanvar-oktabr)**

| Davlat nomi | Ming AQSH dollari | | O‘zgarish sur’atlari, % da | | O’rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 88 630,9 | 92 253,3 | 92,7 | 104,1 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 120 340,4 | 54 693,3 | 108,5 | 45,4 | 1 | 2 |
| Turkiya | 52 676,3 | 51 523,2 | 63,8 | 97,8 | 3 | 3 |
| Qozog‘iston | 51 032,0 | 29 582,1 | 110,5 | 58,0 | 4 | 4 |
| Latviya | 15 297,7 | 17 758,4 | 74,1 | 116,1 | 6 | 5 |
| Ukraina | 2 114,1 | 6 672,2 | 65,7 | 3,2 b. | 9 | 6 |
| Koreya Respublikasi | 17 525,6 | 6 201,7 | 2,2 b. | 35,4 | 5 | 7 |
| Tojikiston | 2 545,2 | 5 257,1 | 2,1 b. | 2,1 b. | 8 | 8 |
| Bangladesh | 0,0 | 3 022,7 | - | - | 47 | 9 |
| Afg‘oniston | 616,1 | 2 959,7 | 58,1 | 4,8 b. | 17 | 10 |
| Iroq | 1 968,7 | 2 688,4 | 71,6 | 136,6 | 10 | 11 |
| Pokiston | 8,4 | 2 196,8 | 1,3 | 261,9 b. | 33 | 12 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 2 702,9 | 2 123,2 | 76,1 | 78,6 | 7 | 13 |
| Gruziya | 448,8 | 1 192,5 | 11,5 b. | 2,7 b. | 19 | 14 |
| Singapur | 1 240,6 | 1 104,0 | - | 89,0 | 11 | 15 |
| Estoniya | 1 187,2 | 973,5 | 39,2 | 82,0 | 12 | 16 |
| AQSh | 4,1 | 632,8 | 53,4 | 155,2 b. | 34 | 17 |
| Turkmaniston | 433,7 | 578,9 | 172,9 | 133,5 | 20 | 18 |
| Germaniya | 627,4 | 427,4 | 165,6 | 68,1 | 16 | 19 |
| Frantsiya | 70,6 | 339,1 | 171,0 | 4,8 b. | 28 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari hamda material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (yanvar-oktabr, ming AQSh. dollari)**

| XSST tarkibi | XXR | | Rossiya Federatsiyasi | | Turkiya | | Qozog‘iston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. | 2019- y. | 2020- y. |
| **Jami eksport** | **88 630,9** | **92 253,3** | **120 340,4** | **54 693,3** | **52 676,3** | **51 523,2** | **51 032,0** | **29 582,1** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1 292,5 | 1 210,4 | 1 548,8 | 765,4 | 214,5 | 537,7 | 6 784,4 | 6 755,3 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | 21,4 | - | - | - | 51,4 | 16,3 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 16 598,4 | 23 555,1 | 481,2 | 2 076,2 | 3 580,6 | 1 130,3 | 23,1 | 29,7 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | - | - | 111,6 | - | - | - | - | - |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 58 386,4 | 53 442,4 | 112 208,3 | 45 407,7 | 42 671,3 | 43 501,6 | 43 784,1 | 22 482,2 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 12 349,8 | 12 450,0 | 5 209,5 | 5 799,8 | 2 608,6 | 6 351,9 | 12,2 | 4,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | 15,4 | - | 3 599,2 | - | - | 3,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | - | 1 593,4 | - | - | 1,1 | - | 14,1 | 38,3 |
| Xizmatlar | 3,8 | 2,0 | 744,3 | 644,2 | 1,0 | 1,6 | 362,6 | 252,5 |

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**




Xizmatlar eksporti hajmi 2,8 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 30,2 % ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi qurilish (38,7 %) va transport (31,8 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (turizm) (9,2 %), moliya xizmatlari (20,0 %) va boshqa xizmatlar umumiy hajmda 0,3 % ni tashkil etgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 7,6 mln. dollar qiymatli 32,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,6 mln. AQSh dollarida pasayish kuzatilib, 17,5 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 4,6 mln. AQSh dollariga teng 23,7 ming tonna sabzavot, shuningdek, 1,5 mln. AQSh dollari qiymatidagi 2,5 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog‘iston (86,3 %), Rossiya Federatsiyasi (10,1 %), Qirg‘iz Respublikasi (1,0 %), Frantsiya (0,8 %), Xitoy (0,7 %) va Iroq (0,6 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI GEOGRAFI-YASI (yanvar-oktabr)**

| Davlat nomi | 2019- yil | | | 2020- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tonna | Ming AQSh doll. | Ulushi* % da | Tonna | Ming AQSh doll. | Ulushi* % da |
| Qozog‘iston | 16 805,8 | 6 661,3 | 72,4 | 30 666,9 | 6 544,2 | 86,3 |
| Rossiya | 4 161,9 | 1 548,9 | 16,8 | 1 827,7 | 765,4 | 10,1 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 317,4 | 364,6 | 4,0 | 62,2 | 78,3 | 1,0 |
| Frantsiya | 17,5 | 48,6 | 0,5 | 17,9 | 58,3 | 0,8 |
| Xitoy | 25,5 | 24,7 | 0,3 | 51,0 | 53,0 | 0,7 |
| Iroq | - | - | - | 69,5 | 48,7 | 0,6 |
| BAA | - | - | - | 23,0 | 23,0 | 0,3 |
| Turkiya | 502,6 | 66,0 | 0,7 | 10,0 | 12,0 | 0,2 |
| Ukraina | 21,5 | 101,1 | 1,1 | 22,9 | 3,2 | 0,0 |

**-qiymat ifodasida*

**MEVA VA SABZAVOT MAHSULOT-LARINING TARKIBI (yanvar-oktabr, ulushi, % da)**

**2019- yil** **2020- yil**



**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 27,5 mln. AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 9,6 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 24,2 % ga o‘sdi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (98,2 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (1,6 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 17 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 12 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 20 656,2 | 26 956,9 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 1 429,6 | 437,7 |
| Paxtadan gazlamalar | 9,0 | 41,0 |
| Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari | - | 27,7 |
| Paxta mahsulotlari | 23,1 | - |

Respublikaning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (12 800,1 ming AQSh dollari – 46,6 %), Turkiya (6 351,9 ming AQSh dollari – 23,1 %) va Rossiya Federatsiyasi (5 779,7 ming AQSh dollari – 21,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

**DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHI-LIK MAHSULOT-LARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 12 560,0 | 12 800,1 |
| Turkiya | 2 608,4 | 6 351,9 |
| Rossiya Federatsiyasi | 5 209,5 | 5 779,7 |
| Pokiston | - | 2 191,1 |
| Polsha | 143,4 | 184,2 |
| Hindiston | 389,0 | 87,6 |
| Qirg‘iz Respublikasi | - | 68,7 |
| Eron | 190,4 | - |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 895,5 | - |
| Ukraina | 55,1 | - |
| Qozog‘iston | 9,7 | - |
| Tojikiston | 57,0 | - |

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida import hajmi 144,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 37,0 % ga kamaydi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,9 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (15,7 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,0 %) ga to‘g‘ri keldi.

**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko’ra, 2020- yilning yanvar-oktabrida import qilingan tovarlar hajmi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 81,2 mln. AQSh dollariga kamaydi va 137,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 6,8 mln. AQSh dollariga yetdi.

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **144 192,6** | **53 182,1** | **91 010,5** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 21 639,2 | 16 798,3 | 4 841,0 | 15,0 | 31,6 | 5,3 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 13 055,2 | 12 768,0 | 287,2 | 9,0 | 24,0 | 0,3 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 8 833,6 | 4 375,2 | 4 458,4 | 6,1 | 8,2 | 4,9 |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 3 755,8 | 3 755,8 | - | 2,6 | 7,1 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 22 597,6 | 3 061,3 | 19 536,3 | 15,7 | 5,8 | 21,5 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari | 10 510,7 | 6 451,9 | 4 058,8 | 7,3 | 12,1 | 4,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 47 415,7 | 5 008,7 | 42 407,0 | 32,9 | 9,4 | 46,6 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 9 626,9 | 658,3 | 8 968,6 | 6,7 | 1,2 | 9,8 |
| Xizmatlar | 6 757,8 | 304,6 | 6 453,2 | 4,7 | 0,6 | 7,1 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (31,6 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (24,0 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (12,1 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (46,6 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (21,5 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| XSST tarkibi | 2019- yil yanvar-oktabriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **63,0** | **103,8** | **51,2** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 164,8 | 146,7 | 2,9 b. |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 76,3 | 75,4 | 160,0 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 106,8 | 157,5 | 81,2 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 151,0 | 151,0 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 94,2 | 122,3 | 90,9 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 95,0 | 117,9 | 72,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 40,9 | 66,1 | 39,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 36,2 | 144,0 | 34,3 |
| Xizmatlar | 65,8 | 19,4 | 74,2 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi 10,5 % dan 15,7 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalari 50,7 % dan 32,9 % ga, turli xil tayyor buyumlar importining ulushi esa 11,6 % dan 6,7 % ga kamaydi.

## IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

| XSST tarkibi | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 4,3 | 5,7 | 15,0 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 17,4 | 7,5 | 9,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 2,4 | 3,6 | 6,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 | 1,1 | 2,6 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 14,4 | 10,5 | 15,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 11,4 | 4,8 | 7,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 34,0 | 50,7 | 32,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 10,8 | 11,6 | 6,7 |
| Xizmatlar | 5,2 | 4,5 | 4,7 |

## XSST BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | O‘zgarish sura’tlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 12 609,5 | 163,9 |
| Tirik hayvonlar | 4 848,6 | 145,3 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 827,1 | 6,0 b. |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 127,0 | 55,4 b. |
| Sabzavotlar va mevalar | 104,4 | 15,8 |
| Go‘sht va go‘sht mahsulotlari | 154,9 | - |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 175,8 | - |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar | 155,6 | 64,2 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 1 669,8 | 3,4 b. |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 966,5 | 169,5 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Probka va yog‘och-taxtalar | 12 746,3 | 75,8 |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 45,6 | - |

**XSST BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)**

| | | |
|---|---|---|
| Tabiiy kauchuk (sun’iy va regeneratsiya qilingan rezina ham) | 0,1 | 0,6 |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 215,0 | 187,2 |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 1,8 | 24,8 |
| Metall rudalari va metall parchalari | 46,5 | - |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Ko‘mir, koks va briketlar | 1 255,8 | 82,5 |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 7 527,1 | 112,0 |
| Tabiiy yoki sun’iy gaz | 50,7 | 2,2 b. |
| **Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari | 3 755,8 | 151,0 |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 911,9 | 180,0 |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 93,9 | 32,2 |
| Kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 14 236,2 | 89,2 |
| Organik kimyo moddalari | 5 162,1 | 120,8 |
| Birlamchi shaklda bo’lmagan plastmassalar | 1 001,6 | 115,1 |
| Noorganik kimyo moddalari | 623,5 | 47,8 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 79,9 | 158,6 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 104,2 | 87,0 |
| O‘g‘itlar | 384,2 | 63,3 |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 1 847,0 | 27,3 |
| Rezina buyumlari | 296,9 | 60,1 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar | 1 709,9 | 89,6 |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 57,2 | 32,9 |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, | 922,9 | 92,2 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna | 0,2 | - |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 5 622,6 | 8,4 b. |
| Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 51,9 | 118,8 |
| Rangli metallar | 2,2 | 126,5 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 265,0 | 19,4 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 18 890,4 | 33,8 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 11 027,7 | 38,6 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 3 656,0 | 116,8 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va | 7 489,0 | 61,0 |

XSST BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr)

| | | |
|---|---|---|
| uskunalari | | |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 515,9 | 118,0 |
| Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 313,3 | 4,5 b. |
| Avtomobillar | 5 042,8 | 35,3 |
| Boshqa transport uskunalari | 215,7 | 8,2 b. |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 770,4 | 46,3 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel | 37,2 | 97,6 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 1 753,1 | 40,6 |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 7 027,0 | 34,3 |
| Poyabzal | 0,07 | 0,3 |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar | 0,2 | 1,2 |
| Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari | 3,8 | 11,6 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar | 35,0 | 4,9 b. |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 5 337,2 | 63,9 |
| Transport xizmatlari | 99,0 | 116,0 |
| Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari | 648,7 | 62,6 |
| Moliyaviy xizmatlar | 672,8 | 92,4 |

Mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmlarining kamayishiga elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari (61,0 % ga pasaygan),sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari (38,6 % ga), avtomobillar (35,3 % ga) va aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (33,8 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar (32,2 %), noorganik kimyo moddalari (47,8 %), kimyoviy materiallar va mahsulotlar (89,2 %), o'g'itlar (63,3 %) hamda efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari (87,0 %) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR-DAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**







Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasi umumiy import hajmida 22,9 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (21,5 %) ortda qoldirgan holda birinchi o‘rinni egalladi.

**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-oktabr)**

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O‘zgarish sura’tlari, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| Rossiya Federatsiyasi | 30 373,1 | 32 949,7 | 64,2 | 108,5 | 3 | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 59 301,8 | 31 061,6 | 151,1 | 52,4 | 1 | 2 |
| Koreya Respublikasi | 38 557,5 | 23 208,8 | 123,6 | 60,2 | 2 | 3 |
| Qozog'iston | 12 318,6 | 13 922,4 | 119,6 | 113,0 | 6 | 4 |
| Vyetnam | 12 366,9 | 7 699,0 | 2,4 b. | 62,3 | 5 | 5 |
| Latviya | 5 347,8 | 4 270,9 | 155,0 | 79,9 | 8 | 6 |
| Turkmaniston | 3 430,2 | 2 552,3 | 2,1 b. | 74,4 | 10 | 7 |
| Eron Islom Respublikasi | 4 883,0 | 2 372,4 | 2,1 b. | 48,6 | 9 | 8 |
| Chexiya Respublikasi | 1 034,6 | 2 317,5 | 98,1 | 2,2 b. | 24 | 9 |
| Turkiya | 17 754,6 | 2 303,6 | 135,5 | 13,0 | 4 | 10 |
| Ruminiya | 1 857,9 | 2 077,2 | 86,5 | 111,8 | 19 | 11 |
| Avstriya | 595,8 | 1 844,7 | 38,4 | 3,1 b. | 27 | 12 |
| Qirg'iz Respublikasi | 1 435,8 | 1 766,6 | 23,8 b. | 123,0 | 21 | 13 |
| Polsha | 2 170,1 | 1 679,7 | 4,8 b. | 77,4 | 16 | 14 |
| Buyuk Britaniya | 7 607,9 | 1 442,3 | 3,5 b. | 19,0 | 7 | 15 |
| Germaniya | 3 019,0 | 1 242,7 | 43,9 | 41,2 | 14 | 16 |
| Belgiya | 714,8 | 1 145,7 | 45,6 | 160,3 | 26 | 17 |
| Belarus | 466,8 | 1 084,5 | 24,1 | 2,3 b. | 31 | 18 |
| Qatar | 1 453,7 | 983,9 | - | 67,7 | 20 | 19 |
| Ukraina | 3 196,5 | 839,6 | 24,3 | 26,3 | 11 | 20 |

2019- yil shu davri bilan taqqoslaganda import bo‘yicha eng yuqori uchlikda o‘zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi tomonidan 44 ta davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (yanvar-oktabr, % da)




Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Koreya Respublikasi, Qozog‘iston, Vyetnam, Latviya va Turkmaniston) jami importning 80,3 % ini tashkil qiladi, bu 115,7 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Respublikadagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog‘iston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)**




Xizmatlar importi hajmi 6,8 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,7 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 34,2 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (79,0 %) va moliyaviy (10,0 %) xizmatlaridan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari (9,5 %) va transport xizmatlari (1,5 %) tashkil etgan.

**MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI**

2020- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan 47,4 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob-uskunalari importi amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy import hajmining 32,9 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar (39,8 %), sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari (23,3 %), elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari (15,8 %) hamda avtomobillar (10,6 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-oktabr yakunlariga ko‘ra, mashina va transport asbob-uskunalari importi 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan kamayish (59,1 %) qayd etildi.

**MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)**

| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|---|
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 1 362,5 | 265,0 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 55 808,8 | 18 890,4 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 28 547,1 | 11 027,7 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 3 131,1 | 3 656,0 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 12 283,0 | 7 489,0 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 437,2 | 515,9 |
| Kantselyariya mashinalari va ma’lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 68,9 | 313,3 |
| Avtomobillar | 14 285,9 | 5 042,8 |
| Boshqa transport uskunalari | 26,2 | 215,7 |

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.: 61 224-92-06**